

SHARTNOMA

(Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universitetining talabalarining malakaviy, tanishuv, o'quv, texnologik, bitiruv ishi oldi, ilmiy-pedagogik amaliyotlar o'tkazishlari bo'yicha)

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti (keyingi o'rinlarda "Oliy ta'lim muassasasi" deb nomlanadi) nomidan muassasa Ustaviga asoslanib ish yurituvchi rektor **Yunusov Xudonazar Beknazarovich** bir tomondan,

(rahbarning F.I.Sh, lavozimi)

rahbarligidagi

(korxonada haqidagi nizom)

asosida ish yurituvchi

(korxonada yoki tashkilotning nomi)

Kelgusida korxonada, tashkilot yoki ilmiy-tadqiqot muassasasi (bundan buyon-amaliyot obyekti)lari bilan "O'zbekiston Respublikasi Oliy o'quv yurtlarida ishlab chiqarish amaliyoti haqidagi" Nizomga muvofiq hamkorlik shartnomasi tuzildi.

I. SHARTNOMANING PREDMETI

- oliy ta'limga ega bo'lgan yosh mutaxassis (bakalavr, magistr)larning intellektual salohiyatidan unumli foydalanish va ularni ish bilan ta'minlashda ko'maklashish.

II. AMALIYOT OBYEKTINING MAJBURIYATLARI

Shartnoma majburiyatlariga muvofiq amaliyot ob'yekti:

- amaliyot davrida amaliyot ob'jektida talabalar bilan baxtsiz hodisa ro'y bersa ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisa haqidagi Nizomga muvofiq tekshirish va hisobga olish;
- malaka amaliyot davrida talabalar ma'lumotlarni to'plashi, ilmiy-tadqiqot va pedagogik amaliyot dasturini bajarishi uchun zarur sharoitlar yaratish;
- amaliyot obyekti rahbari buyrug'i bilan talabani ko'rsatilgan tarkibiy bo'lim, laboratoriyaning yuqori malakali mutaxassisi zimmasiga birlashtirish;
- talaba(lar)ga amaliyot obyektidagi laboratoriya, kabinet, uchastka, kutubxona, chizmalar, texnik va boshqa hujjatlarni ishlab chiqarish amaliyoti dasturini to'liq o'zlashtirilishi va individual vazifalarni bajarishi uchun foydalanish imkonini yaratish;
- talaba(lar)ga amaliyot davrida "O'zbekiston Respublikasi Oliy o'quv yurtlari talabalarining ishlab chiqarish amaliyoti haqidagi" Nizomga muvofiq haq to'lanadigan amaliy mashg'ulotlar uchun joy, boshqa shahardan kelgan talabalarni turar joy va yotar joy buyumlari bilan ta'minlash, universitet o'qituvchilari-amaliyot rahbarlarini belgilangan me'yor bo'yicha to'lanadigan vaqtinchalik turar joy bilan ta'minlash;
- amaliyotdagi talaba(lar)ni tibbiyot xizmati bilan ta'minlash;
- amaliyot o'tkazish jadvaliga muvofiq, universitet bilan kelishib, talaba(lar)ni korxonada bilan to'liq tanishtirish maqsadida u(lar)ning ish joylarini o'zgartirib turish;
- talaba(lar)ning ishga chiqishlarini tabel hisobga olish;
- talaba(lar)ning mehnat intizomini va amaliyot obyektidagi ichki tartib qoidalarini buzish hollari haqida universitetga habar berish;
- talaba(lar)ni bo'sh ish joylari mavjud bo'lganda tegishli ishhaqi bilan lavozimga qabul qilish;
- talaba(lar)ning amaliyot o'tash vaqtida mazkur amaliyot obyektinin tegishli ishchilariga joriy qilingan shaxsiy himoya vositalari va maxsus ovqat, poyabzal, himoya kiyimlari bilan ta'minlash;
- talaba(lar) bilan amaliyot yakunlangandan so'ng amaliyot obyektidagi bo'sh ish joylari mavjudligida, "O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi"ga muvofiq mehnat shartnomasini rasmiylashtirish;
- talaba(lar)ni amaliyot obyekti faoliyati va tarixi bilan tanishtirish, ratsionalizatorlik va ixtirochilik ishlari uchun sharoit yaratish;
- talaba(lar)ni ijtimoiy-siyosiy, madaniy, jismoniy madaniyat va sportishlariga jalb etish;
- ishlab chiqarish amaliyoti yakunida talaba(lar)ning ishi va tayyorlangan hisobotining sifati haqida tavsifnoma berish;
- talaba(lar)ning ishlab chiqarish amaliyoti bo'yicha tayyorlangan hisobot(lar)ini amaliyot tugagandan so'ng tasdiqlash;

- zarur bo'lgan hollarda, ichki mehnat intizomini buzgan amaliyotchi talabalarga amaliyot obyekti rahbarining buyrug'i bilan jazo choralari ko'rish va bu haqida oliy ta'lim muassasasi rahbariyatiga xabar qilish.

III. OLIY TA'LIM MUASSASASI MAJBURIYATLARI

Shartnoma majburiyatlariga muvofiq universitet filiali:

- malaka amaliyotlar boshlanishidan ikki oy oldin amaliyot ob'yecktiga amaliyot bo'yicha dastur va kalendar rejani kelishish uchun yuborish;
- amaliyot boshlanishiga kamida bir hafta qolganda amaliyot ob'yecktiga amaliyotga yuboriladigan talaba(lar)ning buyrug'i va ro'yxatini yuborish;
- amaliyot ob'yecktiga talaba(lar)ni ishlab chiqarish amaliyotini o'tkazish uchun amaliyot kalendar rejasida belgilangan muddatda yuborish;
- malaka amaliyotlarning monitoringi amaliyot rahbarlari sifatida malakali professor-o'qituvchilarni biriktirish va yuborish;
- ma'ruza va ekskursiyalar uyushtirish rejasi, shuningdek, amaliyot davrida o'quv mashg'ulotlarini tashkil etish rejalarini amaliyot ob'yecktlari rahbari va mutaxassislari bilan kelishilgan holda ishlab chiqish;
- amaliyotga ketishdan oldin barcha talabalarni tibbiy ko'rikdan o'tkazish (zarur bo'lgan hollarda);
- mehnatni muhofaza qilish bo'yicha instruktaj o'tkazishning sifati, shuningdek, maxsus kiyim, poyabzal va saqlanuvchi moslama berish tartibini nazorat qilishni ta'minlash;
- talaba(lar)ning amaliyot ob'yecktidagi xodimlar uchun qabul qilingan ichki mehnat tartibi va intizomiga rioya qilishlarini ta'minlash;
- talabalarining amaliyot ob'yeckt ishlab chiqarish amaliyoti rahbari bo'lgan xodimlarga uslubiy yordam berish;
- Oliy ta'lim muassasasi talaba(lari)ning tashabbusi bilan amaliyot obyekti ishchilari uchun kelishilgan mavzu bo'yicha o'qish va suhbatlar o'tkazishni tashkil etish.

IV. TALABANING MAJBURIYATLARI

Shartnoma majburiyatlariga muvofiq amaliyotchi talaba:

- amaliyot dasturida ko'zda tutilgan topshiriqlarni to'liq bajarish;
- amaliyot obyekti ichki mehnat tartib-qoidalariga bo'ysinish;
- mehnat muhofazasi, texnika xafsizligi va ishlab chiqarish sanitariyasi qoidalarini o'rganish va qat'iy rioya qilish;
- bajarilgan ish va uning natijalari uchun korxonada ishchilari qatori javobgarlik majburiyatini olish;
- kundalik daftar yuritish, mahsus jurnal yuritish, chizmalar, fotolavhalar yaratish va boshqalarni bajarish;
- amaliyot yakunida talaba yozma ravishda hisobot tayyorlash va uni bevosita amaliyot obyektidan tayinlangan rahbar imzolagan kundalik daftari bilan birga Universitetdan tayinlangan rahbariga topshirish.
- amaliyot rahbariga barcha topshiriqlar bajarilgani haqida yozma ravishda hisobot berish va uni himoya qilishi;

V. TOMONLARNING SHARTNOMA BO'YICHA MAS'ULIYATLARI

Talabalar amaliyotini tashkil etish va o'tkazish bo'yicha yuklatilgan vazifalarni bajarmaganligi uchun tomonlar O'zbekiston Respublikasi Mehnat haqidagi qonunga asosan va texnika xavfsizligi bo'yicha qoidalarga muvofiq ravishda javob beradilar.

Ushbu shartnoma bo'yicha tomonlar o'rtasida kelib chiquvchi bahslar belgilangan tartibda hal etiladi.

Shartnoma Oliy ta'lim muassasasi, amaliyot ob'yeckt rahbariyati tomonidan imzolanganidan so'ng kuchga kiradi.

"Oliy ta'lim muassasasi

"Korxonada, xo'jalik, fermer xo'jaligi"

"Talaba":

Samarqand davlat veterinariya
meditsinasi, chorvachilik va
biotexnologiyalar universiteti

(nomi)

Manzili: Samarqand shahar,
M.Ulug'bek ko'chasi 77-uy

Tel.: +(99866)234-79-02

Faks: +(99866)234-07-86

OKOHX 92110

(nomi)

(korxonada rahbarining FISH)

Manzili: _____

Tel.: _____

Faks: _____

Kod _____

(F.I.S.H.)

Manzili: _____

Tel. _____

Pasporti _____

Seriyasi № _____

(berilgan muddati va joyi) _____

INN 201878451

INN _____

Imzo _____

Imzo _____

Imzo _____

Sana _____

Sana _____

Sana _____

Huquqiy ekspertizadan o'tkazildi:

Katta yuriskonsult: _____

NAMUNA